

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
JAHON XALQ ERTAKLARI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI**

Ahmadjonova Guljahon Zafarjonovna

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotation: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida chet el xalq ertaklari namunalarining ahamiyati, uning afzalliklari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada chet el bolalar adabiyoti namunalari o‘quvchilarining madaniy tushunchalarini kengaytirish, til ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijodkorliklarini oshirishda muhim rol o‘ynashi haqida fikrlar bildirilgan.

Abstract: This article discusses the importance and advantages of using examples of foreign folk tales in primary school reading literacy classes. The article also suggests that examples of foreign children’s literature play an important role in expanding students’ cultural understanding, developing language skills, and enhancing their creativity.

Annotation: в данной статье говорится о значении примеров зарубежных народных сказок и их пользе на занятиях по читательской грамоте в начальной школе. Также в статье высказывается мнение, что образцы зарубежной детской литературы играют важную роль в расширении культурного понимания учащихся, развитии языковых навыков, повышении их творческих способностей.

Kalit so‘zlar: xalq ertaklari, dunyoqarash, ko‘nikma, tarbiya, madaniyat, ijodkorlik.

O‘qish savodxonligi - bu muhim ta’limiy jarayon bo‘lib, u bolalarga kitob o‘qish, fikr yuritish va muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qish savodxonligi darslari ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Bu darslar nafaqat o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularning fikrlesh

qobiliyatini, tasavvurlarini va ijodkorliklarini ham oshirishga yordam beradi. Chet el adabiyoti namunalari bolalarga turli madaniyatlar, an'analar va urf-odatlar bilan tanishish imkonini beradi. Bunday kitoblar orqali bolalar boshqa mamlakatlardagi hayot tarzini, urf-odatlarini va qadriyatlarini o'rganadilar, bu esa ularning madaniyatlararo tafakkurini rivojlantiradi. Bu turdag'i asarlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, bolalarning tasavvurlarini kengaytirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqe'a va harakatlarning ajoyib, g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiyy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. O'qish savodxonligi darslarida jahon xalq ertaklari namunalaridan foydalanish juda katta ahamiyatga ega. Bu usul nafaqat o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ularning dunyoqarashini kengaytirish va madaniy xazinasini boyitishda ham muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchilar ushbu adabiyotlarni darslarga kiritib, bolalarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashlari mumkin. Bunday yondashuv nafaqat bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday asarlarni o'qish, ularda yangi g'oyalar va kashfiyotlar qilish imkoniyatini berish orqali bolalarning o'qishga qiziqishini oshiradi.

Jahon xalq ertaklari boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashini rivojlantirishda bir qator muhim jihatlarga ega:

- xalq ertaklari turli xil so'zlar, iboralar va frazalardan iborat bo'lib, o'quvchilarga yangi so'zlarni o'rganish va ularni to'g'ri qo'llashni o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning lug'at bazasini kengaytiradi va ularning til savodxonligini oshiradi;
- kreativ fikrlashni rag'batlantirish: chet el bolalar adabiyotidagi qiziqarli hikoyalar va qahramonlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi. Ular hikoyalardagi

voqealar va qahramonlar haqida o‘z fikrlarini bildirishga va yangi g‘oyalar yaratishga undaydi;

- mavzular va darslar bilan bog‘lash: chet el bolalar adabiyotidagi mavzularni boshqa fanlar bilan bog‘lash, masalan, tabiat, do‘stlik yoki madaniyat, bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Ular mavzularni chuqurroq o‘rganish va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Masalan, 3-sinf III qism O‘qish savodxonligi darsligida keltirilgan “Ona qarzi” nomli hind xalq ertagini olaylik. Ertakning asosiy qahramonlari: Rafiq, Rafiqning onasi va otasi. Bir vaqtlar, **Rafiq** ismli bola dadasi hisobot yozib o‘tirganini ko‘radi va dadasi davlat ishida ishlagani uchun har bir qilgan ishi haqida hisobot tayyorlashi, davlat esa bu uchun unga pul to‘lashini bilib oladi. Shunda Rafiq hama uyda qilgan ishlari uchun oyimdan pul olishim kerak deb o‘yaydi. Bir varaq olib qilgan ishlari va ular uchun qancha miqdorda pul to‘lanishi kerakligini yozib onasiga beradi. Rafiq ona ishlarini qilishda yordam bergenligi uchun unga shunday bir to‘lov qilishni xohlaydi. Onasi esa unga, uni tarbiyalashda qilgan barcha mehnatlari, onalikdagi fidoiyligi, farzandining o‘sishi va tarbiyasiga sarmoya qilgan har bir lahzasi uchun hech qanday pul so‘ramasligini aytadi. Rafiq bu gaplarni eshitib, o‘z xatosini tushunadi. U onasining himoyasi va mehnatini qadrlashni boshlaydi va o‘zining onasi oldidagi qarzini hech qachon to‘lay olmasligini tushunib yetadi. Ertak, ona va farzand o‘rtasidagi mehrni va onaning farzandiga bo‘lgan sevgisini ta’kidlaydi. Onaning farzandi uchun qilgan barcha mehnati va fidoiyligi hech qanday pul bilan o‘lchanmasligini tushuntiradi. Rafiqning o‘z xatosini tushunishi, ona oldidagi qarzni anglash, unga nisbatan minnatdorchilikni va hurmatni o‘rganishi juda muhim axloqiy saboqdir. Bu o‘quvchilarga oila a’zolariga, ayniqsa, ona va otaga hurmat ko‘rsatish zarurligini o‘rgatadi. Bu ertak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchilarga axloqiy qadriyatlarni, oilaviy munosabatlarni va mehr-oqibatni o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish savodxonligi darslarida jahon xalq ertaklarini qo‘llash, o‘quvchilarning madaniy tushunchalarini kengaytirish, til ko‘nikmalarini

rivojlantirish va ijodkorliklarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon orqali o‘quvchilar nafaqat o‘qish ko‘nikmalarini, balki o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalar bilan aloqalarini ham rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova “Adabiyot o‘qitish metodikasi”. – Toshkent 2020.
2. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent 2009.
3. B.Aydarova, K.Azizova, E.Tirova 3-sinf O‘qish savodxonligi darsligi III qism “Novda” Toshkent 2023.
4. Oxunjon Safarov, Bashorat Jamilova “Bolalar adabiyoti va folklori” Toshkent Turon zamin ziyo 2015.
5. H.Nazarova, A.Anorboyeva “O‘qish darsi – nafosat olami” Boshlang‘ich ta’lim, 2008, 11-son
6. M.Ashrapova, G.Abdullayeva “Ona tili o‘qitish metodikasi”. “O‘qituvchi” 1983.
7. Mamatova Kamola Ismoddinovna “O‘zbek va jahon adabiy ertaklarida g‘oyaviy va badiiy uyg‘unlik masalalari” maqola
8. www.ziyonet.uz
9. www.pedagog.uz
10. <file:///C:/Users/user/Downloads/49.pdf>